

QADIMGI TURKIY QO'LYOZMALARDA UCHRAYDIGAN YOVVOYI**HAYVONLAR FONETIK TAHLILI****(“KODEKS KUMANIKUS” QO'LYOZMASI MISOLIDA)**

Sobitov A'zamxon Tursunpo'lot o'g'li

Namangan davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya:

mazkur maqolada XIII-XIV asrlardagi qadimgi turkiy xalqlar tarixidagi eng qimmatli manbalardan biri “Kodeks Kumanikus” (Qumanlar qomusi) qo'lyozmasida uchraydigan, hozirgi o'zbek tilidagi talaffuzi bir xil, suturemizuvchilar, tovushqonlar, mushuksimonlar oilasiga mansub ayrim hayvon nomlari lingvistik jihatdan tahlil qilinib, ularning hozirgi kundagi zamonaviy ingliz tilidagi adekvat tarjimalari haqida so'z yuritiladi. Mazkur zoonimlar yaxlit lug'at shaklida kelib, tarjimasi va qiyosiy tahlili berib ketilgan. Qiyosiy tahlilda, ayniqsa ingliz tiliga eng to'g'ri variantda tarjima qilishda qadimgi turkiy tillar etimologiyasiga bag'ishlangan inglizcha lug'atdan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: tovushqonlar oilasi, mushuksimonlar, xonakilashtirilgan, interlingvistika, suturemizuvchi, pragmalingvistika, yovvoyi hayvonlari, arxeologik, , etimologik, onomastika, zoonimiya, semantik tahlil, yirtqich, paleantologik, zoonimlar tadqiqi, leksik qatlam, paleontologik, adekvat tarjima, struktur-gramatik.

**PHONETIC ANALYSIS OF WILD ANIMALS IN ANCIENT TURKISH
MANUSCRIPTS (USED ON THE EXAMPLE OF THE "CODEX CUMANICUS"
MANUSCRIPT)**

Sobitov Azamkhon Tursunpulot ugli,

Teacher of Namangan state university

Annotation:

This article analyzes linguistically some animal names belonging to the mammal, ungulate, and cat families, which are found in the manuscript “Codex Cumanicus” (Codex of Kumans), one of the most valuable sources in the history of the ancient Turkic peoples of the 13th-14th centuries, and whose pronunciation in the modern Uzbek language is the same, and discusses their adequate translations in modern English. These zoonyms are presented in the form of a comprehensive dictionary, and their translation and comparative analysis are provided. In the comparative analysis, especially in the most accurate translation into English, an English dictionary dedicated to the etymology of ancient Turkic languages was used.

Key words: family of leporidae, felines, domesticated, interlinguistics, mammal, pragmalinguistics, wild animals, archaeological, etymological, onomastics, zoonymy, semantic analysis, predator, paleontological, study of zoonyms, lexical layer, paleontological, adequate translation, structural-grammatical.

ФОНЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ДИКИХ ЖИВОТНЫХ В ДРЕВНИХ ТУРЕЦКИХ РУКОПИСЯХ (НА ПРИМЕРЕ РУКОПИСЕЙ «CODEX CUMANICUS»)

Собитов Аъзамхон Турсунпулотович

Преподаватель Наманганский государственный университет

Аннотация:

В данной статье лингвистически анализируются некоторые названия животных, принадлежащих к семействам млекопитающих, копытных и кошачьих, которые встречаются в рукописи «Codex Cumanicus» (Кодекс куманов), одном из ценнейших источников по истории древних тюркских народов XIII-XIV вв., и произношение которых в современном узбекском языке одинаково, и обсуждаются их адекватные переводы на современный английский язык. Эти зоонимы представлены в виде комплексного словаря, и дается их перевод и сравнительный анализ. При сравнительном анализе, особенно при наиболее точном переводе на английский язык, использовался английский словарь, посвященный этимологии древних тюркских языков.

Ключевые слова: семейство зайцевых, кошачьи, одомашненные, интерлингвистика, млекопитающие, прагмалингвистика, дикие животные, археологический, этимологический, ономастика, зоонимия, семантический анализ, хищник, палеонтологический, зоонимология, лексический пласт, палеонтологический, адекватный перевод, структурно-грамматический.

KIRISH

Qadimgi Qumon (Kumanlar) madaniyatida yovvoyi hayvonlar ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. Qumonlar, turkiy xalq bo'lib, yovvoyi hayvonlarni o'zlarining urush ruhini, ajdodlarining kuchini va tabiat bilan uyg'unligini ifodalashda ishlatganlar. Ularning afsonalarida va qo'lyozmalarida yovvoyi hayvonlar ko'plab ramziy ma'nolarni anglatgan. Qumanlarning yovvoyi hayvonlarni tasvirlashda ularga bo'lgan hurmat va qadriyatlar aks etgan. Bu hayvonlar ularning urushchi, erkin va mustaqil ruhi bilan bog'liq bo'lib,

Qumonlarning tarixiy va madaniy merosida hal qiluvchi rol o'ynagan, shuningdek yovvoyi sutemizuvchilar leksik qatlami lug'aviy ma'nolarga boyligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi¹.

METODOLOGIYA

Hayvon nomlari bo'yicha tadqiqotlar olib borgan olimlar va ilmiy ishlar turli davrlarda amalga oshirilgan. Quyidagi tadqiqotchilar va ular tomonidan olib borilgan ishlar bu mavzuni o'rganishda muhim o'rin tutadi: V. Minorskiy – qo'lyozmadagi hayvon nomlari va ularning lingvistik xususiyatlari ustida ishlagan. U turkiy tillarning rivojlanishida Kumanlarning roli haqida ko'plab maqolalar yozgan. O. Kravtsova esa “Kodeks kumanikus” dagi hayvonlar nomlarini, ularning turk tillari va boshqa tillar bilan bog'lanishini, shuningdek, Kumanlarda yovvoyi hayvonlarning diniy va madaniy rolini tahlil qilgan. Shuningdek, I. M. Dyakonov, B. Spuler, o'zbek tilshunosligida R. Yo'ldashev, Sh. Shamsiddinovlar o'z tadqiqotlarida Kodeks Kumanikusdagi zoonimlarni o'rganish orqali Kuman tilining tarixiy rivojlanishini, hayvonlar nomlarining semantik yuklovini va ularning O'zbek tiliga ta'sirini aniqlashga harakat qilishgan. Bu ishlar Kumanlar va ularning madaniyatini yanada chuqurroq o'rganish uchun muhim ilmiy asoslarni taqdim etadi.

NATIJA VA TAHLIL

Kodeks kumanikus qo'lyozmasida Seçchan termini yaxlit lug'at shaklida berilib, sichqon deya tarjima qilingan va shunday ta'rif beriladi: yer yuzida keng tarqalgan, xavfli kasalliklar tarqatadigan sutemizuvchi kemiruvchi hayvon. Ushbu so'zning fonetik tahliliga e'tibor qaratadigan bo'lsak, q undoshi o'rnida ch undoshi ishlatilgan. Aslida q tovushi qattiq bo'lakli uvula tovush hisoblanadi. Qadimgi turkiy xalqlarning aksariyatida ham **c**, **ch** undoshlari q o'rnida ishlatilgan. Masalan: coy – qo'y, coyan – quyon. Bugungi kundagi zamonaviy ingliz tiliga eng to'g'ri variantdagi tarjimasi mouse [maos].

Ushbu qo'lyozmada coyan termini quyon deb tarjimalangan va tovushqonlar oilasiga mansub, quloqlari va orqa oyoqlari uzun sutemizuvchi hayvon izohi berilgan. Mazkur zoonim yasalişida ham q undoshi o'rnida c undoshi ishlatilgan. Odatda qadimgi turkiy xalqlarda chuqur til orqa undoshi **q** ishlatilmagan, o'rnida asosan **c**, **ch** yoki **k** undoshlari orqali yasalganiga guvoh bo'lishimiz mumkin, lekin hozirgi o'zbek tili fonologiyasida k undoshiga jarangli juft sifatida g undoshi beriladi². Demak, mazkur termin ham biroz fonetik o'zgarishga uchragan holda hozirgi kungacha o'z shakli va ma'nosini saqlab qolgan. Mazkur termini inglizcha adekvat tarjimasi rabbit [ræbit].

¹ A.T. Sobitov “MAHMUD QOSHG'ARIYNING “DEVONU LUG'OTIT TURK” ASARIDA KELGAN YOVVOYI HAYVONLAR KLASSIFIKATSIYASI VA ULARNING SEMANTIK TAHLILI”. NamDU axborotnomasi maxsus soni. – 2024. Namangan. 2-b.

² D.A. Nabiyeva & H.R. Zokirova “O'zbek tili fonetikasi” o'quv-uslubiy qo'llanma. Zahirddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti.- 2017, Andijon. 37-b.

Qo'lyozmada uchraydigan yana bir zoonim bu – boru. Bo'ri deb tarjima qilinadi va sutemizuvchilarning itsimonlar oilasiga mansub yirtqich hayvon deya ta'riflangan. Devonu lug'otit turk qo'lyozmasida ham bori, böri³ shakllarida uchraydi sababi o'g'uz va aksariyat turkiylarda shunday shaklda ishlatilgan. Ushbu zoonim ingliz tiliga wolf [wɒlf] shaklida tarjima qilinadi.

Qo'lyozmada kelgan navbatdagi zoonim – maymun. Mazkur termin shunday ta'riflanadi: tana va tuzilishi odamga o'xshash, sutemizuvchilarning yuksak rivojlangan turkumiga mansub hayvon. Ko'rinib turibdiki, shakli va talaffuzi hech qanday fonetik o'zgarishsiz bugungi kungacha saqlanib qolgan. Ushbu termini zamonaviy ingliz tiliga adekvat shaklda monkey [mʌŋki] deb tarjima qilish mumkin.

“Kodeks kumanikus” da **ayu** so'zi **ayiq** deb tarjimalangan va paxmoq yungli, besonaqay, katta, sutemizuvchi yirtqich hayvon deya ta'riflangan. Ko'rinib turibdiki qadimgi qumanlarda ishlatilgan mazkur termin hozirgi kundagi ushbu ma'noni beruvchi zoonim bilan deyarli bir xil. Bear [beə] so'zi eng maqbul variantda tarjima qilingan sgakli hisoblanadi.

Pil so'zi **fil** tarjimasida kelib, Afrika va Osiyo qit'asida yashaydigan, sutemizuvchilar oilasiga mansub, sirtga chiqqan uzun kurak tishli va baquvvat hartumli, o'simliklar bilan oziqlanuvchi ulkan jussali hayvon deya ta'riflangan. Mazkur terminlar ham talaffuz qilinishi jihatidan deyarli bir xil ekanligini ko'rishimiz mumkin. Mazkur otning inglizcha adekvat tarjimasi elephant [elefənt].

Qo'lyozmada kelgan tongus termini to'ng'iz deb tarjima qilingan va yovvoyi cho'chqa, qobon deb izohlangan. Clauson etimologik lug'atida ham mazkur termin uchraydi. Unga ko'ra, qipchoqlarda tongu:z, uyg'ur va hakaslarda tonuz deyilgan⁴. Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, ushbu termin biroz fonetik o'zgarishlarga uchragan holda deyarli o'zgarishsiz qolgan ya'ni talaffuzi bir-biriga juda ham yaqin terminlar hisoblanadi. Mazkur termin ingliz tiliga hog [hɒg] shaklida tarjima qilinadi.

Kodeks kumanikus qo'lyozmasida kelgan astlan so'zi “arslon, sher” deb tarjimalangan va shunday ta'rib berib ketilgan: mushuksimonlar oilasiga mansub, kalta va sarg'ish yungli hayvon. Clauson etimologik lug'atida la:n qo'shimchasi orqali yasalgan bir qancha zoonimlar berilgan, masalan asl:an, sirtla:n, kapla:n va boshqalar. Hozirgi kunda mazkur termin fonetik jihatdan biroz o'zgarishga uchrab, “arslon” tarzida talaffuz qilinadi. Ushbu zoonimning inglizcha adekvat tarjimasi lion [laɪən].

³ Муталибов. С. (*таржимон ва наирга та наирга тайёрловчи*) Махмуд Кошғарийнинг “Девону луғотит турк (Туркий сўзлар девони)” қўлёзмаси, Ўзбекистон ССР Фанлар академияси А.С. Пушкин номидаги тил ва адабиёт институти ва Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти, Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, III том, №: 81. Тошкент. 1963.

⁴ G. Clauson, “An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish”, 1972. *Oxford at the Clarendon press*, Glasgow. 930 – pp. ISBN 109634812686

XULOSA

“Kodeks kumanikus” ya’ni “Qumanlar kitobi” bevosita turkiy xalqlar tarixida yaratilgan qimmatli manba hisoblanib, qumanlar qadimgi turkiylarga mansub bo’lgan alohida bir qavmning tarixiy nomidir. Mazkur qavm barcha turkiy xalqlar qatorida bugungi o’zbeklar uchun ham bevosita aloqador ekanligi tarixiy manbalardan bizga ma’lum. Qadimgi turkiy xalqlarda yovvoyi hayvonlarning nomlanishi o’zlarining til va madaniyatiga qarab turlicha bo’lgan. Eng muhim jihati, qumanlar qo’lyozmasida uchraydigan aksariyat hayvon nomlari hozirgi o’zbek tilidagi hayvon nomlari bilan fonetik, leksik va struktur-gramatik jihatdan bir-biridan katta farq qilmasada, ayrim zoonimlar shakl jihatdan arxaik so’zlarga aylanib qolgan bo’lsa, ayrimlari butunligicha shakl va mazmuni yo’qotib istorizmlarga aylanib ulguragan. Ushbu faktor ularni semantik va gramatik jihatdan anqilashtirish va boshqa turkiy qo’lyozmalar bilan qiyoslash vazifasini ko’dalang qo’yadi, negaki vaqtlar o’tib tovush sistemasi o’zgardiy ya’ni zoonimlar lingvistik jihatdan katta fonetik o’zgarishga duch keldi lekin qo’lyozmada kelgan va yuqorida tahlil qilingan ayrim hayvon nomlari hozirgi kunga qadar mazkur o’zgarishlarga istisno sifatida qoldi. Zoonimlar uchraydigan matn tahliliga bag’ishlangan jahon va o’zbek tilshunosligidagi tadqiqotlar orqali tarixiy, leksik-semantik, didaktik ahamiyatga ega hayvon nomlari va ularning xususiyatlari chuqur o’rganilmoqda. Ushbu qiyosiy tahlillar, ilmiy izlanishlar va tarjimalar pragmalingsvistika, interlingsvistika, zoonimiya kabi yo’nalishlar rivoji uchun beqiyos ahamiyatga ega, ayniqsa qadimgi turkiy tillardagi zoonimlar bo’yicha turli lug’atlar, darsliklar, qo’llanmalar ishlab chiqishda muhim manba bo’lib xizmat qilishi asosiy maqsadlardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**RO’YXATI**

1. A.T. Sobitov “MAHMUD QOSHG’ARIYNING “DEVONU LUG’OTIT TURK” ASARIDA KELGAN YOVVOYI HAYVONLAR KLASSIFIKATSIYASI VA ULARNING SEMANTIK TAHLILI”. NamDU axborotnomasi maxsus soni. – 2024. Namangan. 2-b.
2. D.A. Nabiyeva & H.R. Zokirova “O’zbek tili fonetikasi” o’quv-uslubiy qo’llanma. Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti.- 2017, Andijon. 37-b.
3. Муталлибов. С, (таржимон ва нашрга та нашрга тайёрловчи) Маҳмуд Қошғарийнинг “Девону луғотит турк (Туркий сўзлар девони)” қўлёзмаси, Ўзбекистон ССР Фанлар академияси А.С. Пушкин номидаги тил ва адабиёт институти ва Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти, Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, III том, №: 81. Тошкент. 1963.

⁵ B.S. Jafarov & A.T. Sobitov “Mahmud Qoshg’ariyning “Devonu lug’otit turk” asaridagi maqol va matallar tarkibida kelgan ayrim zoonimlarning Grammatik va semantik tahlili” nomli xorijiy maqola. PERIODICA – Journal of modern philosophy, social sciences and humanities. – 2024, Poland. 90 p.

<https://innovateconferences.org>

4. G. Clauson, “An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish”, 1972. Oxford at the Clarendon press, Glasgow. 930 p. ISBN 109634812686
5. B.S. Jafarov & A.T. Sobitov “Mahmud Qoshg’ariyning “Devonu lug’otit turk” asaridagi maqol va matallar tarkibida kelgan ayrim zoonimlarning Grammatik va semantik tahlili” nomli xorijiy maqola. PERIODICA – Journal of modern philosophy, social sciences and humanities. – 2024, Poland. 90 p.

INTERNET SOURCES

1. https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/08/03/NamDU-ARM-12868-Ozbek_tili_fonetikasi.pdf
2. <https://tr.wikipedia.org/wiki/Kumanlar>
3. <https://codex-cumanicus.uz/>
4. <https://archive.org/details/sir-gerard-clauson-an-etymological-dictionary-of-pre-thirteenth-century-turkish->
5. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/adabiyot/maxmud-qoshg-ariyning-devoni-lug-ati-turk-asari-haqida>